FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM CHOLG‘U YO‘LLARI VA ULARNING O‘ZBEK MAQOM SAN’ATI TIZIMIDAGI O‘RNI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.027

Tosheva Marjona
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada maqom san’atining Sharq xalqlari musiqa merosidagi o‘rni, uning nazariy va amaliy jihatlari hamda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining shakllanish tarixi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqomlarning xalq musiqa ijodi bilan uzviy bog‘liqligi, diniy-ma’naviy qarashlar bilan aloqador jihatlari hamda “Choli Iroq” kuyining badiiy va ruhiy mazmuni tahlil qilinadi. Maqom turkumlarining lad-usul tizimi, kompozitsion tuzilishi va ijrochilik an’analari haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: maqom, Shashmaqom, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, lad va usul, Choli Iroq, maqom ijrochiligi, milliy musiqa merosi

FERGANA-TASHKENT MAQOM INSTRUMENTAL PATHS AND THEIR PLACE IN THE SYSTEM OF UZBEKISTAN MAQOM ART

Tasheva Marjona
UzINMA named after Yunus Rajabi

Abstract: This article examines the role of maqom art in the musical heritage of Eastern peoples, its theoretical and practical dimensions, and the historical formation of the Fergana-Tashkent maqom traditions. It explores the relationship between maqoms and folk musical creativity, their spiritual and religious associations, and the artistic and emotional content of pieces such as “Choli Iraq”. Scientific conclusions are presented regarding modal-rhythmic systems, compositional structure, and performance traditions.

Keywords: maqom, Shashmaqom, Fergana-Tashkent maqom traditions, modal system, Choli Iraq, performance practice, national musical heritage

Maqom san’ati ko‘pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo‘lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma’lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo‘lib, bastakorlik ijodiyotining o‘ziga xos sayqal berilgan turidir.

Maqomlar keng ma’noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda o‘zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari,

(cc) BY

sadoohanglar, doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o'z to'laqonli ifodasini topgan. G'iyosul lug'at" qomusining muallifi G'iyosuddin quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom - pardai surudro go'yand" - "Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi Musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy - nazariy va amaliy tamonlari bor.

O'zbek maqom san'ati ming yillik tarixga ega. O'zbek maqomi so'zlaridagi boy ma'no barcha zamonlarda e'tirof etilgan. Yurtimizdagi "Shashmaqom", "Xorazm", "Farg'ona - Toshkent" maqomlari kuyning o'ziga xos mavqei va ijrochilik yo'li bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi va asrlar osha sayqal topishida davr, zamon, ijtimoiy voqelik muhim unsur sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Maqomlarga bo'lgan hozirgi e'tibor va qiziqish kundan kunga oshib bormoqdaki, buning isboti o'laroq o'zbek milliy musiqasi uchun alohida shakllantirilgan oliy ta'lim muassasasi va unga yaqin kunlarda berilgan akademiya unvoni, fikrlarimizni yanada isbotlaydi. Shu jumladan milliy musiqa madaniyati va maqomlarning targ'iboti masalasi hozirgi muhitning dolzarb masalalaridandir.

Maqom shakl jihatidan rivojlangan yaxlit asar sifatida umumlashmaning yuqori darajasini, nisbatan yaxlit, intonatsion-struktura birliklarining yagona yaxlitligiga integratsiyalashganligini bildiradi. Maqom kompozitsiyasining ko'p bosqichli qatlamiga kirib borgan holda harakatchanlik va barqarorlikning o'zaro ta'siri ko'p jihatdan namoyon bo'ladi, ba'zan esa turli darajadagi o'ziga xos shakllarda amalga oshishi mumkin. Avvalo, maqomotning ikki gipostazasi - lad (tovush balandligi tizimi) va usul (muqobil tashkil etish)ning ko'p funksiyali roli hamda ularning faoliyati asosida yotgan omillar e'tiborga loyiqdir.

"Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari XVIII asr oxiri - XX asr boshlarida Qo'qonda, Fazliy Namangoniy boshchiligida ko'plab saroy shoirlari faoliyat yuritgan. Shuningdek, musiqa ilmiga ham katta e'tibor berilgan. Xalq ichidan yetishib chiqqan iqtidorli sozanda va bastakorlar saroy hizmatiga chaqirilgan. Saroy muhitida mumtoz she'riat va musiqa uyg'unligida, maqom yo'llarining ilmiy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan" [9. 93b]. Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak Xudoyberdi ustoz Qo'qonda saroy sozandalarining boshlig'i bo'lgan. Uning shogirdi Ashurali avvalo saroyda badarg'a qilinganidan keyin esa erkin faoliyat yuritgan. Bu esa Farg'ona maqom cholg'u ijrochiligida ham avvallari saroy va undan tashqaridagi ikki xil an'ana barobariga rivojlanib borganligidan dalolat beradi deya olishimiz mumkin.

Farg'ona-Toshkent maqomlarining tarixiy ildizlariga oid ishonchli yozma manbalarning tanqisligi hamda, ijro etilib kelinayotgan kuy va ashulalarning mukammal tanqidiy matnlarining deyarli yo'qligi, mavzuni tahlil etishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Musiqa asarlari orasida tuzilishi hamda kuy qiyofasi nuqtai nazaridan uch maqom turkumi alohida ajralib turadi. "Toshkent va Farg'ona maqom

(cc) BY

yo‘llari - Bayot I II III IV V, Chorgoh I II III IV V kabi raqamlar orqali nomlanadi. Toshkent, Farg‘ona maqom yo‘llari shashmaqom ashula bo‘limining, birinchi va ikkinchi guruh sho‘balari tuzilish tartibida ishlangan” [14. 256b].

Dastlab shuni aytish kerakki, maqom cholg‘u qismlarining unsurlari xalq kuylarida ham ko‘plab uchraydi. Ko‘pgina xalq kuylari, ayniqsa, yirik shakldagi cholg‘u yo‘llari maqomlar tartibida yaratilgandir.

Maqomlar uslubidagi mashhur xalq kuylaridan Cho‘li Iroq, Nasrulloyi, Ilg‘or, Miskin, Ufari Iroq, Mushkiloti Dugoh uning Mo‘g‘ulchasi va Ufari, Rosti Panjgoh Qashqarchasi, Bek Sulton, Eshvoy, Kurd, Cho‘li Kurd, Norim-norim va boshqa cholg‘u yo‘llari shular jumlasidandir. Bu cholg‘u yo‘llari maqomlar tarkibida mavjud bo‘lgan kuy bo‘laklari - xona va bozgo‘ylardan tuzilgan. Bu kuy bo‘laklarining maqomlarga kirmagan xalq kuylarida ham uchrashligi, ularni xalq musiqa ijodi bilan chatishib ketganligining dalilidir.

Bastakor-sozandalarning asrlar davomida maqom mavzularida kuy va ashulalar yaratib kelganliklari va hozirgi kungacha ham ular ta’sirida yoqimli va ajoyib asarlar yaratayotganliklari maqomlarning xalq musiqa ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona-Toshkent turkumli cholg‘u yo‘llari o‘ziga xos mustaqil cholg‘u turkumlaridan iborat. Mazkur turkumlar II, III, V, VII qismli bo‘lishi mumkin. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari cholg‘u turkumi: *II qismli Xojiniyoziy; III qismli Mushkiloti Dugoh, Ajam taronalari, Nasrulloiy; V qismli Chorgoh; VII qismli Miskin* asarlari bo‘lsa, ashula-cholg‘u turkumida III qismli Nasrulloiy; V qismli Bayot, Chorgoh, Shaxnozi - Gulyor; VII Dugoh husayniy kabi asarlardir. Ushbu maqom turkumlari Shashmaqom sho‘balari asosida yuzaga kelgan. Shuning uchun ohanglari, kuy tuzilishlari, lad va usullari, shakllari Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarida ham qo‘llaniladi [15. 38b].

Bilamizki maqomlar asrlar qa’ridan bizga tarix haqida so‘zlovchi manbaalardan biri hisoblanadi. Maqomlarga olimlar, ijodkorlar va ijrochilar turli nuqtai nazardan qarashgan. Deylik ayrim olimlar - musiqiyshunoslar, maqomlarni yetik an’anaviy professional musiqa ijodi sifatida nazar solsa, yana bir turli ijodkorlar maqomlarni xalqni orzu umidlari hamda istaklari o‘z rahnamolariga istak tilaklarini yetkazish maqsadida yaratilagan deya talqin etishadi. Ya’ni maqomlar shunday asarlarki, unga qaysi rakursdan qarasangiz ham sizga to‘liq holda ko‘rinaveradi. Yana shunday rakurs borki maqomlarda ayniq qolipidek mos keladi. Bu - diniy nuqtaiy nazar hisoblanadi.

Ushbu maqolamizda diniy qarashlarga yoki qandaydir masalada fatvo qilishdan ancha yiroqmiz, biz faqat ushbu qadim tarix zamiridan bugungi kunimizga qadar salomat yetib kela olgan, musiqiy madaniyatimizning yetuk namunasi bo‘lmish maqomlarning nafaqat tarixdan so‘zlovchi ensiklopedik hikoyasi balki muqaddas dinimiz bo‘lmish “islom” diniga yaqinlik aloqalari xususida yozmoqdamiz.

(cc) BY

Shu o‘rinda maqomlarni kelib chiqish davrlariga e’tibor qaratsak, ayni islom dinining yurtimizda eng ustuvor bo‘lgan davrlariga to‘g‘ri keladi. Maqom yaratuvchilari ushbu asarlarni ilohiylashtirish maqsadida dinimizga yaqinlashtirishni ixtiyor e’tishgan. Jumladan: Duvozdahmaqom tarkibi bo‘lgan “Ushshoq” maqomining - “oshiq” ma’nosini, “Busalik” maqomining - mahbubini izlashga chiqqan yo‘lovchi ma’nosini, “Husayniy” maqomining - oshiq yo‘lboshchisi, “Rohaviy” maqomining - yo‘l ramzi, yo‘l harakatiga ishorasini, “Rost” maqomining “haq (tangri taolo)” ma’nosini, “Hijoz” maqomining - Makkayi mukarrama va Madinayi munavvara shaharlari joylashgan o‘lkasi, haj safariga ishorasini, “Isfahon”, “Iroq” maqomlarining nomlari esa buyuk safar bo‘lmish haj safarida o‘tiladigan shahar nomlarining kiritilishi ushbu buyuk asarning diniy shakllantirilishiga sabab bo‘ladi [14. 44b].

Shu o‘rinda “Iroq” maqomiga e’tibor bersak, ushbu maqom nomini olishi xususida rahmatli ustozimiz, musiqashunos olim Oqilxon Ibrohimov: “Iroq tasnifidagi maqom namunalari haj safari talabgorlaru uchun o‘ziga xos tasalli beruvchi ahamiyat kasb etgan [5]” - deya ta’kidlab o‘tadi.

Ushbu Iroq maqomi bugungi kungacha rivojlanib yangi namunalari paydo bo‘lib kelmoqda, Manbaalarda berilishicha Yusuf Andijoniy, Mavlono Najmiddin Kavkabiy, Mavlono Zaynulobiddin Rumiy va boshqalarning Iroq maqomiga turli xil usullar, g‘azallar bog‘lab mumtoz kuy va ashula yo‘llarini yaratganlar, bu an’ana hozirgacha davom etib kelmoqda.

Shu o‘rinda “Cho‘li Iroq” cholg‘u kuyiga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning xuddi “Iroq” maqomi singari ilohiyligi xususida ustoz Oqilxon Ibrohimov yuqoridagi jumlasini davom ettirgan holda, kuyni ulug‘ haj safari bilan bog‘lab undagi mashaqqatli yo‘l, undagi bekatlarda inson ruhining ko‘zlangan maqsadga bosqishma-bosqich erishuv darajalari mukammal bayon etilganligi, undagi “bum-bak” doira usulining yo‘lda ravon odimlayotgan karvon harakatini ham anglatishi, kuyi pardalardan mahzun sadolana boshlangan kuyda bepayon cho‘lu biyobon va bu manzarada muttasil hayolga cho‘mgan yo‘lovchi holatining badiiy ifodasi ekanligini ta’kidlab o‘tadi.[5]

Maqomlarning cholg‘u yo‘llaridan Cho‘li Iroq ayniqsa dilrabo yangraydi. Cho‘li Iroq noma’lum bastakor tomonidan yaratilgan. Bu kuy Shashmaqom jumlasidan Iroq maqomining saraxbor deyilgan sho‘basi ohanglariga asoslangan. Hatto uning katta avjidagi Muhayyari Chorgoh namudi ham saqlab qolinganligi ma’lum.

Muhayyari Chorgoh namudi haqida ham aynan Is’hoq Rajabovni tadqiqotlaridan bilib olishimiz mumkin. Unga ko‘ra: “Muhayyari Chorgoh namudi - Dugoh maqomida Muhayyari Chorgoh sho‘basi uchramaydi. Bu namud Muhayyari Iroqdan olingani shubhasiz va Buzruk, Rost, Dugoh va Iroq maqomlarida keng foydalaniladi.

Oqilxon Ibrohimov ushbu Cho‘li Iroq maqom cholg‘u kuyiga yana shunday ta’rib beradi: “Cho‘li Iroq” maqom cholg‘u kuyi qalb ila idroklanib, ko‘ngil quvvat olishi

(cc) BY

jarayonida o‘ziga xos tarzda “kichik olamdan katta olamga” ruhiy haj safari ham amalga oshgan.

Cho‘li Iroq kuyining kelib chiqish tarixi xususida Ismatulloh ibn Ne’matulloh Mo‘jiziy “Tavorixi musiqiyun” [7. 22b] asarida bayon etiladi. Unga ko‘ra Mavlona Ali Shox haj safarida Iroq cho‘llaridan o‘tayotganda ijod qilingani qayd etilgan. Shu asnoda bizga Farg‘ona Toshkent maqom yo‘llari tarkibida yetib kelgan.

Cho‘li Iroq Saraxbori Iroqdan anchagina farq etadi. Bastakor Cho‘li Iroq tarkibiga cholg‘u qismlar uchun xos bo‘lgan qaytarma jumlalar bo‘lmish bozgo‘ylarni kiritgan, kuyning rivojlantirishda peshrav ohanglaridan foydalangan.

Cho‘li Iroq tarkibidagi kuy bo‘laklarini tahminan quyidagicha tasavvur etish mumkin: uning ikkita bosh kuy jumlasi daromad tuzilmasi, uchunchisi kuyning takrorlanadigan qismi bo‘lmish bozgo‘y, to‘rtinchi va beshinchi jumlalar bozgo‘ylari bilan o‘rta pardalarda ijro etiladigan kuy qismi, to‘rt jumladan iborat beshinchi xati katta avj vazifasini bajaruvchi oxirgi bozgo‘ydir. O‘tmishda Cho‘li Iroq ayrim yakka sozlar ijro etar edi. Endi bu mumtoz asar hamma cholg‘ularda va ansamblda birdek muvaffaqiyat bilan ijro etilishi mumkin.

“Cho‘li Iroq” kuyini Sultonxon Hakimov (tanbur), Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov (nay), Rizqi Rajabiy (tanbur), Turg‘un Alimatov (tanbur, sato) kabi benazir san’atkorlarning fayzli ijrolari bilan xalqimiz orasida mashxxur bo‘la oldi. Bugungi kunda bastakorlik ijodimiz, ushbu cholg‘u kuyiga ham bir qancha benazr namunalarni baxsh etgan. Ayniqsa cholg‘u kuyi bo‘lgan “Cho‘li Iroq” kuyini ashula yo‘liga aylanishi bu eng yirik burilishlardan hisoblanadi. Shunga asosan atoqli xonanda va bastakor Imomjon Ikromov bu kuyga Hazrat Navoiyning quyidagi g‘azalini bog‘laydi:

E, nasimi subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,

Zulfi sunbul, yuzi gurl, sarvi gulandomimg‘a ayt

Imomjon Ikromov yuqorida ta’kidlaganimizdek “Cho‘li Iroq” kuyiga yangilik bilan birga yangi hayot baxsh etgan bo‘lib, Shundan boshlab “Cho‘li Iroq” ashula bo‘lib hozirgi kunda xonandalar orasida hamda xalq orasida yaxshigina mashxurlikka ega. Xususan Akmalxon va Boboxon So‘fixonovlar ijrosida Ilyos Akbarov tomonidan notaga olinib, 1949-yili “Navoiy so‘ziga musiqalar” to‘plamida nashr qilingan.

Xulosa. Farg‘ona-Toshkent maqomlari 30-yillarda hali o‘z manzilida to‘laqonli iste’molda bo‘lib, doimiy ijro etilib yurganda Farg‘ona vodiysidan chiqqan Ahmadjon Umrzoqov, Ashurali Odilov, Abduqodir Ismoilov, Usta Ruzmatxon Isaboyev, Muhiddin hoji, Hayit Oxun, Berkinboy Fayziyev, Jo‘raxon Sultonovlar shuhrat qozongan, Toshkent va uning atroflarida yetishgan Sultonxon tanburchi, Mulla Tuychi, Shorahim Shoumarov, Boboxon va Akmalxon So‘pixonov bu maktabning eng kuzga ko‘ringan vakillari bo‘lib hisoblanganlar. Keyinchalik Toshkent maqom maktabi namoyandalari sifatida aka uka Shoakbar, Shoolim, Shoqosim Shojalolovlar faoliyat

(cc) BY

ko‘rsatdilar. So‘fixonovlar va Shojalilovlarning farzandlari bugungi kunda mumtoz an’analarning davomchilari bo‘lib maydonga chiqmoqdalar

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining 30-yillardan keyingi tarixi esa sozandalarning xotirasida va ijralari bitilgan nota va audio yozuvlarda saqlanib kelmoqda. Ana shu xilma-xil dalillarni bir butun an’ana sifatida o‘rganish Farg‘ona-Toshkent yo‘llarining maqomot tizimidagi o‘rni va axamiyatini tushunishga yordam beradi.

Maqolamiz so‘ngida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Farg‘ona-Toshkent turkumli maqom cholg‘u yo‘llari Shashmaqomning cholg‘u qismlaridan ko‘chirilgan emas, balki ularning negizida mahalliy sozanda va bastakorlar tomonidan ishlangan barkamol musiqiy asarlardir. Farg‘ona-Toshkent turkumli maqom cholg‘u yo‘llari XIX asr o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, ildizi, yaratilish tarixi hamda yuzaga kelishi juda qadim zamonlardan boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu borada maqomlar haqida manbalar va nota yozuvlari yuzaga kelgan ekan, hozirgi kunda ularni ilmiy asosda chuqurroq o‘rganish uchun butun imkoniyatlar mavjud.

Modomiki shunday ekan, Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u yo‘llariga kiruvchi hamda ancha yillardan beri ijro etilmay kelinayotgan turkumli durdona cholg‘u kuylarini qayta tiklab, o‘zgartirmasdan aksincha, zamonaviy ruhda sayqallab kelajak avlodga yetkazishimiz darkor. Ana shunda biz ajdodlarimizdan qolgan meroslarni ko‘z qorachig‘imizday asrab avaylagan hamda biz ham kelgusi avlodga meros qilib qoldirgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora tadbirlar to’g‘risida” president qarori

2. “O’zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g‘risida”president qarori

3. A. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi., T., - 1927, 1991

4. https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/munojot-3/

5. Ibrohimov O. Cho‘li Iroq, “Ozbekston adabiyoti va san’ati” gazetasida e’lon qilingan, 2016-yil № 4390

6. Ibrohimov O. Maqom asoslari, “Toshkent-Turon” T., - 2018

7. Ismatulloh ibn Ne’matulloh Mo‘jiziy “Tavorixi musiqiyun”, Toshkent - 2010,

8. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. M., - 1998

9. O. Matyaqubov, Maqomot. - T., “Musiqa”, 2004

10. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

11. Rajabiy I. Maqom asoslari / T., O‘zdavrnashr, 1963

12. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. Toshkent - 1978 y.

(cc) BY

13. Rajabiy Yu. O‘zbek maqomlari. Toshkent - 2007 y
14. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., O‘zdavrnashr, 1963,
15. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентский макомы. Ташкент, 2006 г.

(cc) BY